



**HELIANTHUS TUBEROSUS L. (YER NOK) O'SIMLIGINING EKSTRAKTIV MODDALARINI
AJRATIB VA ULARNING KIMYOVIY TAHLIL QILISH**

Nuraliyev Shuxrat Baxtiyorovich

assistent, Namangan muxanandislik-texnologiya institut.

E-mail:shnuraliyev3112@gmail.com

Tel: +998973805001

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6777160>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer nok o'simligining inson organizmiga foydali hususiyatlari xamda o'simlik tarkibidagi kul, namlik va ekstraktiv moddalarni ajratib olish va ularning kimyoviy taxlil qilish haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Helianthus tuberosus L, Yer nok, tuganak, biologik faol modda, ekstraktiv, inulin, pektin, polisaxaridlar, dorivor, kimyoviy, kul, namlik.

Abstract: In this article, the useful properties of the Earth's pear plant to the human body are given information on the separation of ash, moisture and extractive substances contained in the plant and their chemical analysis.

Keywords: Helianthus tuberosus L, Earth pear, root fruit, biologically active substance, extractive, inulin, pectin, polysaccharides, dorivor, chemical, ash, moisture.

O'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalarini kimyoviy jixatdan tahlil qilish, ularning tuzilishi va xossalari o'r ganish bir tomondan kimyo fanini rivojlantirib, unda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan zamonaviy samarali dorivor moddalarning yaratilishi va tibbiyot amaliyotiga tadbiq etilishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi paytda tibbiyotda ishlatiladigan dorivor moddalarning 1/3 qismi o'simlik moddalarini asosida yaratilgan. O'simliklardan olingan dorivor preparatlar sintetik moddalarga nisbatan bir qator afzalliliklarga ega. Keyingi paytlarda ularga bo'lgan talab oshib bormoqda. Bunday o'simliklardan biri, bu yer nok hisoblanadi. Chunki ushbu o'simlik tarkibida ko'plab biologik faol moddalar mavjud.

Helianthus tuberosus L. o'simligining ko'rinishi - tuganakli o'simlik, kungaboqarlar urug'i, astralilar oilasi (Asteraceae)ga kiradi.



a)

Helianthus tuberosus L., Yer nok o'simligi.

b)

a) Yer ustki qismi. b) Ildiz mevasining ko'rinishi.

Yer nokning vatani Shimoliy Amerika hisoblanib, shimoliy Amerikani yevropaliklar tomonidan ochilishiga qadar braziliyalik hindular tomonidan yer nokning tuganaklari oziq-ovqat sifatida iste'mol qilingan (o'simlikning nomi ham ana shu hindular qabilasining nomidan kelib chiqan – "tupinamba").

Yer nokning foydali xususiyatlari. Yer nok tarkibida polisaxaridlardan inulin va pektin moddalari mavjud bo'lib, organizmdan ko'plab zaharli moddalarning chiqarilib yuborilishini ta'minlaydi.

Pektin va inulin oshqozon-ichak trakti ishlashini yanada aktivlashitiradi va safro haydash faoliyatini stimullashtiradi.

Yer nokni iste'mol qilish organizmni turli xil infeksiya va viruslar, shuningdek hazm qilish organlarini zaharlaydigan moddalarga organizmni yanada barqarorlashadi. Uning foydali moddalari organizmga turli bakteriya va lyamqliya, opistorxis kabi parazitlarning kirishiga aslo yo'l qo'ymaydi. U ichaklarda normal mikroflorani paydo qilish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun u dizbakterioz bilan kasallanganlar uchun juda foydalidir.

Yer nok shilliq parda uchun foydali bo'lib, ularni qon bilan ta'minlanishini stimullaydi. Uni oshqozon yazvasi, o'n ikki barmoqli ichak, duodenit, kolit, gastrit, enterit, pankreatit, kuyish, ich ketish va ich qotish kabi kasalliklarning davosida foydalidir.

Undan qandli diabet, pankreatit, ichaklarni yallig'lanishi va gipertonik kassaliklarni davolashda foydalanish mumkin. Shu bilan birga organizmga tushgan nitratlar shlaki, toshlarni, tuzlarni eritib meyorga tushiradi. Yer nok oshqozon – ichak kassaliklari, siydir yo'llarini, yuqori nafas yo'llarini normallashtiradi.

Shundan kelib chiqib Yer nok o'simligininmg tarkibini kimyoviy jixatdan tahlil qolishni maqsad qilib olindi.



Maqsadni amalga oshirish uchun Yer nok o'simligining yer ustki va ildiz meva qismini ekstraksiya usulida ekstraktiv moddalari ajratib olindi va kimyoviy jixatdan tahlil qilindi.

Olingan natijalar 3.1.1-jadvalda keltirilgan.

**Yer nok o'simligi tarkibidagi
kul, namlik va ekstraktiv moddalar miqdori
1.1-jadval.**

O'simlik Organi Nomi	Namlik. %	Kul, %	Ekstraktiv moddalar		
			Metanol 96%	Metanol 40%	Suv
Ko'k massasi	71,9 %	2,4%	27,5%	20,1%	22,6%
Ildizi va tuganagi	78,6 %	1,9 %	21,6 %	18,2 %	19,1 %

Ajratib olingan ekstraktiv moddalari va kul tarkibi o'rGANildi.

Olingan natijalardan (1.1-jadval) ma'lum bo'ldiki, spirtli ekstraktlardan foydalanib konsentrangan xlorid kislota va rux kukuni ta'sirida qizil rangli eritmani hosil bo'lishi, flavonoidlar borligidan dalolat berdi.

Yanada aniqroq bo'lishi uchun, ekstraktiv moddalarga ammiak eritmasidan qo'shib qizdirilganda flavononollarga xos zarg'aldoq sariq rang, qo'rg'oshin(II)-atsetat ta'sirida flavonlarga xos tiniq sariq rangli cho'kma, alyuminiy xloridning 5% li eritmasidan tomizilganda, eritma rangi ko'pchilik flavonoidlarga xos bo'lgan sariq rangga bo'yaliishi va temir(III)-xloridning spirdagi 5% li eritmasidan ta'sir ettirilganda flavonoidlarga xos bo'lgan yashil rang hosil bo'ldi.

Spirtli eritmaning tarkibida vitaminlar borligini aniqlash uchun eritmaga qizil qon tuzining to'yingan va temir (III)-xloridning 1,0 % li eritmalaridan qo'shib chayqatilganda, suyuqlik ko'k ranga bo'yaliishi, ekstraktiv moddalar tarkibida askorbin kislota borligini bildiradi.

Bundan tashqari 0,01% li metilen ko'ki va 10% li natriy bikorbanat eritmasidan quyib qizdirilganda suyuqlikni rangsizlanishi, ekstrakt tarkibida γ -lakton 2,3-degidro-L-gulonkislota, yani C vitamini borligi ma'lum bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, o'simlik tarkibidagi kul elementlari ichida ko'proq Ca, Mg, Fe mavjud ekan. Shu bilan birga yashil massasi tarkibida 5-6 % gacha Ca va 3-3,5 % gacha magniy mavjudligi aniqlandi.



O'simlikning yashil va tiganagining ekstraktiv moddalari tarkibida organik kislotalardan limon kislotasi mavjudligini sifat reaksiyasi orqali aniqlandi. Buning uchun ikkita probirkalarga gaz chiqish trubkasi o'rnatildi va ularga 10 tomchidan sul'fat kislotasi tomizib, probirkalar qizdirildi. Aloxida ikkita probirkalar olinib biriga bariy gidroksid eritmasidan tomizildi, ikkinchi probirkaga ikki tomchi iodning kaliy iodiddagi eritmasidan tomizildi va rangsizlantirish uchun 10 % li natriy gidroksid eritmasidan qo'shildi. Qizdirilayotga birinchi probirkadan gaz chiqish boshlanishi zaxoti, trubkasini bariy gidroksid eritmasi mavjud probirkaga tushirilganda, eritma rangsizlandi. So'ngra, gaz chiqish nayini ikkinchi probirkaga tushirildi. Ikkinci probirkada o'ziga xos xidli och sariq cho'kma hosil bo'lди. Ikkinci probirkani qizdirib xuddi shunday tajriba o'tkazilganda yuqoridagidek xolat namoyon bo'lди. Demak, xaqiqatdan ham limon kislotasi mavjud ekan.

Limon kislotasi α -gidroksikislotasi xisoblanib, sul'fat kislotasi ishtirokida qizdirilganda dekarboksillanish jarayoni ketib, natijada asetonga aylanadi.

Ekstraktiv moddalari tarkibida polisaxarid modalardan pektin moddasini mavjudligi ham sifat reaksiyalar asosida tekshirib ko'rildi. Buning uchun, quyidagi usul qo'llanildi:

Ishqoriy yer metalalri ta'sirida flokulalar hosil bo'lishini kuzatish.

Suvli muhitda olingan ekstraktiv moddalari tarkibida pektin moddalari mavjdligini aniqlash uchun, unga kal'siy gidroksidi qo'shilganda sekin -asta oz miqdorda cho'ma hosil bo'lди. Lekin bariy gidroksidi qo'shilganda tezda va nisbatan ko'proq cho'ma hosil bo'lди. Natriy, kaliy va ammoniy gidroksidlari ta'sirida flokulalar hosil bo'lmadи. Bundan ekstrogent tarkibida eruvchan pektin moddasi borligi ma'lum bo'lди.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki hozirgi kunda er nok o'simligining ildiz mevasidan ajratib olingan polisaxaridlar inson organizmga foydali hususiyatlari juda ko'p, qandli diabet, oshqozon kasallikkleri bilan o'g'rigan bemorlarni davolashda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Дзантиева Л.Б. Содержание питательных веществ в зеленой массе топинамбура сорта Интерес. / Л.Б. Дзантиева, В.Б. Цугкиева, Б.Г. Цугкиев // Журнал кормопроизводство, 2006, № 6. - С. 27.
- Квитайло И.В. Сравнительный биохимический анализ клубней топинамбура различных сортов. / И.В. Квитайло, М.А. Кожухова, М.В. Степуро. // Известия вузов. Пищевая технология. -2010. - №2-3. -С. 20-21.
- Кочнев Н.К. Топинамбур - биоэнергетическая культура XXI века/ Н.К. Кочнев, М.В. Каменечева. - М.: Типография «Арес», 2002. - 76 с.
- Зеленков В.Н., Шелпакова И.Р., Заксас Н.П. Минеральный ихимический состав различных частей культуры топинамбура. Сборник научных трудов. – Инновационные технологии и продукты. Выпуск 3. Новосибирск, НТФ. 144—АРИС, 1999, - 62с.



5. Квитайло И.В. Сравнительный биохимический анализ клубней топинамбура различных сортов. / И.В. Квитайло, М.А. Кожухова, М.В. Степуро. //Известия вузов. Пищевая технология. -2010. -№2-3. -С. 20-21.

5. <http://ndb.nal.usda.gov>.

6. Мамедова Э.И. Биохимическое обоснование разработки профилактических напитков на основе топинамбура: Дис. ... канд. техн. наук, Краснодар, 1998. – 175 с.

7. Дехконов Р.С., Нуралиев Ш.Б. Ернок пектинининг суюлтирилган эритмасини гидродинамика хоссаларини ўрганиш. //Физиология ва валеология асослари фанларининг долзарб муаммолари. Республика Онлайн илмий конференция материаллари. Наманган. НамДУ. 2020 й. 102-104 бетлар.

8. Dehqonov R.S., Mamatqulova S.A., Nuraliyev SH.B. Yernok o'simligidan polisaxarid-pektin moddasini ajratib olish va uning ayrim xossalalarini tahlil qilish. //Физиология ва валеология асослари фанларининг долзарб муаммолари. Республика Онлайн илмий конференция материаллари. Наманган. НамДУ. 2020 й. 104-107 бетлар.

9. Дехконов Р.С., Тошматов Й.Р., Нуралиев Ш.Б. Озиқ-овқат саноатида қўлланиладиган полисахаридларнинг сертификатлашга оид муаммолар. // Товарлар кимёси ва халқ табобати муаммолари ва истиқболлари. VII-Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. АндДУ. 18-19 сентябр. 2020 й. 345-348 бетлар.

10. Dehqonov R.S., Abdullayev SH.V., Nuraliyev SH.B. Asteracea oilasiga mansub (yer nok) tiganagini kimyoviy tahlil qilish. // Qurolli kuchlar, fan, ta'limda innovatsion ishlanmalar. NamDU va O'ZR Qurolli kuchlari akademiyasi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar to'plami. 2020 y. 15-17 bet.

11. Dehqonov R.S., Abdullayev SH.V., Nuraliyev SH.B. Asteraceae oilasiga mansub (yernok) tiganagining kimyoviy tahlil qilish. / "Табиий фанлар ва экологияга оид айрим муаммолар" XV-илмий мақолалар тўплами. Наманаган. 2020 й. 174-176 бетлар.